

ABDULLA ORIPOVNING SHE'RLARI TAHLILI

Bekmirzayeva Mashhura Shavkatjon qizi

Annotatsiya: Abdulla Oripovning she'rlari tahlili xususida so'z yuritiladi

Kalit so'zlar: ona, muhabbat, vafo, urush.

O'zbek she'riyatida o'ziga xos davr yarata olgan, o'zining falsafiy mushohadaga boy she'rlari bilan milliy ma'naviyatimiz yuksalishiga ulkan hissa qo'shgan, chinakam iste'dod egasi bo'lgan Abdulla Oripov o'zbek she'riyatiga yulduzday porlab kirib kelgan. Shoir hayot, muhabbat, vatan, ona haqidagi she'rlari bilan insonlar tilida va dilida hali hanuz yashab kelmoqda.

Ayolni madh etmagan hech bir yoqimli so'z qolmagandir, balki. Ilk yozgan she'ringiz ham onangizga atalgani shundan, ehtimol. Chunki "ayol" deganda, avvalo, kishining ko'z oldida o'z validasi, buvisi, opa-singillari — yaqinlari gavdalanadi. Shoir ham onasiga atab she'r yozadi. Abdulla Oripov she'rlarida inson tuyg'ulari, hislari, dardlari, armonlari shu qadar mahorat bilan tasvirlanadiki, uning she'rlarini nafaqat she'rlari balki she'rdagi bir nechta misralarni o'qiboq beixtiyor qalbimiz larzaga keladi "Onajonim" she'ri ana shunday asarlardan biridir. Ushbu she'rni o'qir ekanmiz, har bir onasidan ajralgan insonning iztiroblari ko'z oldimizda yaqqol namoyon bo'ladi:

Necha kunki yo'q oromim

Kelolmayman hushimga,

Onajonim kechalari

Kirib chiqar tushimga.

Onasini yo'qotgan insonning, albatta, hushi o'zida bo'lmasligi, oromini yo'qotishi ayni haqiqat. Shunday kunlar keladiki onaning o'rnini bosadigan hech narsa topolmay qoladi kishi. Uni izlaydi, lekin topolmaydi. Qo'lini ko'ziga surtmaganiga nadomat chekadi...

Onalar o'limidan keyin ham onaligicha qoladi, degan gap to'g'riligini shoir mana bu misralar orqali ifodalab bermoqda:

U kun chetda oh chekardim

G'ussalarning dastidan.

Sen otamga pul beribsan

Yostig'ingning ostidan.

Aytibsanki, onasizlik

Kelmasin hech o'yiga

Sarf qilingiz, menga emas

Abdullaning to'yiga

Farzand yutuqqa erishsa xursandligidan boshi ko'kka yetadigan inson ona bo'ladi. Shoirning kitobini onasi bolishini ostida saqlanganini shu misralar bilan ifodalab beradi:

Esimdadir, titrar edim —

G'amgin, bolish pastida.

Kitobimni ko'rdim nogoh

Boshginangning ostida.

Toshday qotdim o'shal oni

Bor toqatdan ayrilib.

Shoir o'g'lim, — deding menga

Sekingina qayrilib.

Abdulla Oripovning she'rlari hayotdagi ma'lum bir voqea, hodisa bilan bog'liq, ya'ni she'rning yaratilishiga turtki bor. Uning "Ayol" she'ri ham bir voqea bilan bog'liq. Shoirning Shermuhammad ismli amakisi bo'lib, minglab kishilar boshiga tushgan fojia – ikkinchi jahon urushi uni ham qonli domiga tortgan edi. Afsuski, urush uni ayab o'tirmaydi, yigitning jismi dunyoning qaysi bir puchmoqlarida qolib ketadi. Uning turmush o'rtog'i, 19 yoshli kelinchak – Oybuvi qizalog'i Rahimani bag'riga bosganicha qolaveradi. 5-6 yildan so'ng, yaralar biroz bitgandek bo'lgach, Orif buva kelinini yoniga chaqirib: "Hali yoshsiz, bu dunyoga har kim umid bilan keladi. Taqdir ekan, ko'rgilik, chidaymiz-da. Hayotingiz hali

oldinda, turmush qurib, unib-ulg'aying, biz rozimiz!" – deydi. Shunda beva kelinchak: "Agar xonadoningizda sig'mayotgan bo'lsak, ayting, biz ketaylik. Lekin, bu gapni qo'ying, meni azoblamang, dardimni yangilamang... Men ukangizga mangu sodiq qolish uchun va'da berganman, ular men uchun doim tirik!" – deya gapni yakunlaydi. Shundan so'ng bu mavzuda boshqa gap ochilmaydi. Vafodor kelinchak yo'lga intizor, ilhaq bo'lib, umr bo'yi shu xonadonda yashaydi. O'n to'qqiz yoshli ayolning bunchalik sodiqligini ko'rib ulg'aygan Abdulla Oripov 1965-yili Oybuvi kelinoyisi timsolida ana shunday she'ri dunyoga keladi:

Yigitlar maktubin bitganda qondan,
Kelinlar firoqdan chekkanda yohu.
Uning ham panohi qaytmadi jangdan,
O'n to'qqiz yoshida beva qoldi u...

Shoirning bu she'ri ayollarga bag'ishlangan she'riy qasidadir. Birgina savol meni tinch qo'ymasdi: Nega shu qadar sabr–bardoshlilikiga qaramay, ayolni "ojiza" deb ataydilar?! Axir yurtni yov bosganda, er–yigitlar turib o'zi jangga otlangan ham, yoshgina beva qolishiga qaramasdan yostig'doshiga sodiq qolgan, umr yo'ldoshiga nafaqat hayotda, balki ijodda ham munosib yo'ldosh bo'la olgan, tuhmat jazosi bilan o'n yil qamoqqa surgun qilingan yorini har qanday ig'vo, ta'na–dashnomlarga chidab sabr ila kutgan ham shu ayol emasmi?! Shunday ham deylik, o'zi hamisha bir suyanchga muhtoj bo'la turib mazlumlar himoyasiga oshiqqan ojizadan go'zal xilqat bormi olamda?! Afsuski, taqdir sinovlaridan hech bir kishini bebahra qoldirmaganidek, bu go'zal xilqatga ham shafqat qilmaydi. Abdulla Oripov "Ayol" she'rida beva qolgan ayollarni ulug'lash bilan birgalikda buzuq beva ayollarga qarata:

Shu sodiq bevaga sajdalar qiling,
Shu sodiq bevaga aylang ehtirom, – deydi.

Shu o'rinda Mirtemirning "Surat" dostoniga to'xtalib o'taman. Qissada tasvirlanishicha, asarning bosh qahramoni Toshlon to'rt yillik jangda ikkinchi jahon urushi frontlarida jang qilgan paytda uning halok bo'lganligi haqida xabar tarqaladi. Shundan keyin Toshlonning sevimli yori undan umud uzib, boshqa bir kimsaga

turmushga chiqadi. Urushdan omon-eson qaytgan Toshlon bu xoinlikka duch kelib, falakning adolatsizligidan eziladi, iztirob chekadi. Shoir o'z hayotining achchiq xotiralardan iborat sahifasi asosida yozilgan bu asarda birorta nola, o'kinish, ranjish, la'nat o'qish kabi hollarning yo'qligi, aksincha, unda tiniq va toza insoniy tuyg'ular tarannum etilgani muallif qalbining ulug'ligidan, Mirtemirning inson sifatidagi go'zalligi va oliyjanobligidan darak beradi. Ikkala asar ham ikkinchi jahon urushida bo'lgan voqea asosida yuzaga kelgan.

Xulosa qilib aytganda Abdulla Oripovning she'rlari hamma uchun birdek tushunarli. She'riyatining o'ziga xos jihatlari haqida so'z yuritilar ekan, eng avvalo, uning she'rlarini xalq qalbiga yaqin qilgan xususiyatlardan biri uning xalqchilligi va xalqona tilda yozilganligidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdulla Oripov Onajon
2. Abdulla Oripov Tarjimayi holi
3. Rahmat Bobojon O'zbek adabiyotidagi mashhur she'rlarning yaralish tarixi
4. Mirtemir Surat dostoni.